

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

O'ZBEKISTON

2022 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov
Bosh muharrir o'rinbosarlari: Zaynobiddin Abdirashidov
Qosimboy Ma'murov
Mas'ul kotib: Ozoda Tojiboyeva

Tahrir kengashi

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Tahrir hay'ati

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Shuhrat Sirojiddinov
Deputy Editors in Chief: Zaynabiddin Abdirashidov
Kasimbay Mamurov
Executive secretary: Ozoda Tajibaeva

Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziyev.

Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

MUNDARIJA

Lingvistika

Yorqinjon Odilov

Jamiyat, til va madaniyat.....6

Muhayyo Hakimova

O‘zbek tilida “holat” ma’noli abstrakt nomlar.....18

Меҳмет Джан

Прошлое и настоящее алфавитов, используемых в
тюркских республиках.....31

Surayyo Ziyotova

“Mehrobdan chayon”da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar.....44

Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

Bahodir Karimov

O‘zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy.....61

Marg‘uba Abdullayeva

Paremik janrlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari
(tarixiy-nasriy asarlar misolida).....72

Nodira Egamqulova

Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til.....89

Tarix. Manbashunoslik

Shamsiddin Kamoliddin, Shoiraxon Saidjabbor

O‘rta asr Samarqand bozorlari haqida yangi ma’lumotlar.....104

CONTENT

Linguistics

Yorkinjon Odilov

Society, language and culture.....6

Muhayyo Hakimova

Abstract nouns meaning "situation state" in Uzbek.....18

Mehmet Jan

Past and present alphabets used in the Turkic republics.....31

Surayyo Ziyotova

Socio-political vocabulary expressed in the work

"Mehrobdan chayon"44

Literature. Translation studies

Bahodir Karimov

Uzbek jadid prose and Abdulla Qadiri.....61

Marguba Abdullaeva

Ideological and artistic properties of paremiological genres

(on the example of historical and prose works).....72

Nodira Egamkulova

National press, literature and literary language in Turkestan.....89

History. Source studies

Shamsiddin Kamoliddin, Shoirakhon Saidjabbor

New data on the *bāzārs* of the medieval Samarqand.....104

Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til

Nodira Egamqulova¹

Abstrakt

Har qanday adabiy jarayon mavjud ijtimoiy sharoit, siyosiy tuzum bilan bog'liq holda faoliyat olib boradi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, tarixiy sharoit adabiyotga odatdagidan ham kuchliroq ta'sir o'tkazdi. Bu davr ijodkorlari o'z asarlarida milliy ozodlik, milliy o'zlik, ma'rifat mavzularini avj pardalarda tasvirlashdi. Ushbu maqolada XX asr boshlari o'zbek adabiy jarayoni – jadid adabiyotining yuzaga kelishida muhim rol o'ynagan tarixiy sharoit, ijtimoiy-siyosiy omillar ta'siri masalalari yoritilgan. 1905-yil chor hukumati tomonidan qabul qilingan Manifest va uning ahamiyati, mohiyati haqida manbalarga tayanilgan holda fikr yuritilgan. Turkistondagi matbuot, matbaa ishlariga to'xtalangan. Jadid adabiyotidagi muhim yangilanishlar, badiiy tasvir usuli, adabiy aloqalar, milliy tilga munosabat borasidagi mulohazalar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: *Turkiston, jadidchilik, Manifest, vaqtli matbuot, adabiy jarayon, adabiy aloqalar, milliy til.*

Kirish

Tarixiy hujjatlar shundan dalolat beradiki, o'zbek adabiyoti-ning biror bosqichi milliy uyg'onish davri adabiyotichalik siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yaqin kelmagan, birlashib ketmagan. Adabiyotning ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib ish tutishi, o'z yo'nalishini belgilashi ayni shu davr adabiyoti misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Fikr yuritmoqchi bo'lganimiz XX asr boshlari vaqtli matbuotidagi adabiy jarayon uchun 1905-1917-yillarni chegara qilib belgilab oldik. Bu yillar oralig'i bir tomonidan jadid adabiyotining birinchi bosqichi sifatida qaraladigan bo'lsa, boshqa tarafdin siyosiy jarayonlar bilan ham belgilanadi. Mazkur ilk

¹Egamqulova Nodiraxon Baxtiyar qizi – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Termiz davlat universiteti.

E-pochta: nodiraegamkulova1@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-0736-9065

Iqtibos uchun: Egamqulova N.B. 2022. "Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 89-103.

bosqich adabiyotimizning dunyoviy mazmun tomon burilishi ma'rifatparvarlik ruhining yetakchiligi, jadidchilik qarashlarining mo'lligi, g'oyaviy pafosning kuchliligi, badiiylikning zaifligi va an'anaviy she'riyat turlari ila bir qatorda drama, roman singari janrlarning embrional shakllari maydonga kelishi kabi belgilar bilan xarakterlanadi [Sodiqov, 23]. Adabiyotdagi yangilanishlar, g'oyaviy kurashlar, bahs-munozaralar bu davr adabiyotiga xos bosh xususiyat bo'ldi.

Milliy uyg'onish davri adabiyoti o'zining mafkuralardan, sinfiylikda holi bo'lgan bahosini mustaqillik yillarida topdi. Biroq shuni unutmaslik kerakki, mustaqillik davri adabiyotshunosligi, adabiy tanqidi, ilm ommasi qanchalik xolisona fikr bildirishga harakat qilmasin, bu davr adabiyotining haqiqiy manzarasi, o'ziga xos jihatlari, asosiy xususiyatlari to'g'risida o'sha kezlardagi milliy vaqtli matbuotchalik ishonchliroq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Milliy matbuot to'g'risida jadid ziyolilari bildirgan ilk fikrlar bevosita jadid adabiyoti tadqiqining boshlanish nuqtasi bo'la oladi. Shu bilan bir qatorda, "Vaqt", "Tarjimon", "Sho'ro", "Dirilik" kabi tashqi davriy nashrlarning Turkistondagi milliy matbuot va adabiyot haqidagi e'tiroflari, mushtariylarning taklif va e'tirozlari vaqtli matbuot va adabiy jarayonga nisbatan o'sha davrdagi munosabatlarni qanday bo'lganini ko'rsatadi.

Aytish kerrakki, XX asr boshlari vaqtli matbuoti hozirga qadar turli aspektlarda tadqiq etilgan bo'lishiga qaramay, uning adabiy jarayonga ta'siri masalasi, davr - matbuot - adabiy jarayon munosabatlari hali to'liq yechimini topgan emas. Bu esa adabiyotshunosligimiz ildizlarini chuqurroq o'rganish kerakligidan darak beradi.

Turkistonda milliy matbuotning vujudga kelishi

Turkistonda milliy matbuot ishlari (garchi biroz kechroq bo'lsa-da) 1905-yildan so'ng yuzaga keldi. Bunda 1905-yil ro'y bergan siyosiy jarayonlar, xususan, Manifest asosiy omil bo'ldi. Sababi, 1905-yil chor hukumati tarafidan Manifest e'lon qilinishi natijasida imperiya musulmon aholisining ijtimoiy-siyosiy hayoti butunlay o'z yo'nalishini o'zgartirdi [Abdirashidov 2016, 37]. Rossiyaning Koreya va Manjuriya ustidan hukmronlik uchun yaponlar bilan kechgan va tarixda rus-yapon urushi (09.02.1904 - 05.09.1905) deb nom olgan muhoraba qudratli imperiya uchun og'ir mag'lubiyat va tahlikali vaziyatni yuzaga chiqardi. O'zining ikki millionlik qo'shini bilan to'rt yuz minglik yapon qo'shiniga urushni boy

berish Rossiya imperiyasi qudratiga soya solgan kuchli zarba bo'ldi. Urush Portsmut sulhi bilan 1905-yil 5-sentabrda yakunlangan bo'lsa ham uning asoratlari uzoq davom etdi. Rossiyaning bu mag'lubiyati 1905-yilgi Rossiya inqilobini keltirib chiqardi: "...o'ylamag'on yerdan yopunlar chiqib, eski hukumatni tamom oyoqdan qoldirib.... xalqning umidin butun-butun kesmoqg'a sabab bo'ldi" [Taraqqiy 1]. Va natijada mamlakatdagi tartibsizliklarga barham berish maqsadida podshoh Nikolay II farmoni bilan 17-oktabr sanasida Manifest (Farmoyishi oliy) qabul qilindi. Manifest matnining avvalida uning qabul qilinish sababi sifatida "ulug' mamlakatning ko'b joylarida chiqqan fitna va betartiblik" [Turkiston viloyatining gazetasi 42]ka barham berish nazarda tutiladi. Bu tartibsizliklarning "mamlakatning butunligig'a va birligig'a zarar keltur"ishidan cho'chigan Nikolay II "chin ixloslik fuqarolarini" Rusiyani o'z vatanlari deb bilib "tinch va osoyishtaliqni barpo qilmoq"qa chaqiradi.

Mazkur Manifest 3 banddan iborat bo'lib, birinchi: fuqarolarga so'zda, dinda, yig'inda, jamiyatda erkinlik berilishini; ikkinchi: siyosiy partiya va davlat dumasini ta'sis etilishini; uchinchi: barcha qonunlar Davlat dumasida joriy qilinishini nazarda tutardi. Butun Rusiya aholisi Manifestni iliq qarshi oldi, unga umid bog'ladi. Imperiyaning turli nuqtalarida chop etiluvchi gazetalarda Manifest haqida maqolalar e'lon qilindi, matbuot ishlarida jonlanish kuzatila boshlandi. Avloniyning xabar berishicha, Manifestdan so'ng 1905-1917-yillar oralig'ida o'lkada o'zbek tilida 22 gazeta, 8 jurnal nashr etilgan [Avloniy 1993, 115-123].

So'z erkinligining birinchi nishonasi bo'lgan "Taraqqiy. O'rta Osiyoning umrguzarlig'i" gazetasida Manifest bergan imkoniyatlardan vaqtida foydalanib qolishga da'vat etildi [Taraqqiy O'rta Osiyoning umrguzarlig'i, 1]. Jumladan, Davlat dumasini uchun har bir viloyatdan vakil saylanib, Peterburgda bo'ladigan umumiy majlisda mazkur vakillarning takliflari inobatga olinib, "maslahat va mashvarat qilushib hamalari ittifoqlik ilan zakun ya'ni qonun va qoida barpo qil"inishini batafsil tushuntirib, Turkistondan ham munosib vakil saylashga da'vat etiladi hamda "o'shal odamlar maslahatxonada o'z viloyatlarining nafi va xayriyatlari to'g'risida so'z aytub sa'y va taraddud bilan ish qilmoqlari lozim"ligini ta'kidlaydi. Manifest tufayli hayotlari "minba'd yaxshi va ...farog'atchilikda" kechishini, lekin shu bilan birga "har bir ishni bilib va fahmlab" hushyor turmoqlariga chaqiradi. Bir qarashda Manifest o'lka xalqlariga erkinlik olib kelgan, Rusiyadagi inqilob va tartibsizliklarga barham bergandek tasavvur uyg'otadi. Lekin Manifestdan keyin chiqqan gazetalarning bir yilga

ham bormay hukumat tomonidan to'xtatilishi, muharrirlarning turli xil so'roq va jarimalarga tortilishi ushbu "erkinlik"ning haqiqiy mohiyatini ochib berishga yordam beradi. Manifestning birinchi qurboni bo'lgan "Taraqqiy" o'zining ilk sonidayoq bu "hurriyat"ning: "to'shak ustida og'zig'a suv tomizilib turgan og'ir xastadek ekani-ni" [Taraqqiy 1] ochiq-oydin yozdi va bu bilan "hukumat va uning ma'muriyatiga qarshi o't ochdi" [Avloniy 1993, 116]. Ushbu Manifest bergan "zaif va lanj" hurriyatga andarmon bo'lib qolmay, dindoshlarini kurashishda davom etishlariga chaqirdi. Bu maqola Manifestning soxta yuzini ochib tashladi, va shuning barobarida rus hukumati-ni senzura siyosati, yerli xalqlarni barcha huquqlardan mosuvo etib kelayotganligi, matbuot va maorif ishlarida doimiy to'siq ekanligi kabi ko'plab "yopiq" masalalarni qo'zg'ab qo'ydi. "Taraqqiy" o'zining bu maslagi bilan uzoqqa borolmasligini ham yaxshi bilardi, Turkis-tondagi barcha nashrlarning taqdiri qanday tugashini sezgani uchun ham u "o'z tomiriga bolta uruvchi" maqolalar berishdan cho'chimadi. "Taraqqiy" haq gaplarni aytdi, biroq o'z navbatida, turkistonlik musulmonlarning aksar qismi Manifestning mohiyatiga to'liq tushunib yetmadi, zarra uchqunni alangalatib yuborolmadi. Manifestda aytil-gan Duma, saylov, deputat tushunchalarini to'liq anglab, (birinchi) Duma majlislarida ishtirok etishga huquqiy bilimlari yetadigan va-killar (6 nafar bo'lishi kerak edi) topilmadi. Ikkinchi Duma vakillari ham diplomatik munosabat o'rnata olmaganliklari, "...so'zi fuqaro nafi va hukumat zararig'a bo'lgani uchun" [Tujjor 8] Dumadan chiqa-rib yuboriladi. Va turkistonliklar va sibirliklar uchinchi Dumaga va-kil yuborish huquqidan mahrum qilinadilar. Behbudiy bu holatni tahlil qila turib, "ahli huquqdan va dorul funundan" chiqqan siyosat ilmidan xabardor vakil yuborilmaganligi turkistonliklarning eng katta xatosi deb bildi: "Haqiqata ayb o'zimizni nodonligimizdandur. Chunki beilmmiz, ya'ni ilmi siyosat, iqtisod va qonuni ijtimoiyadan butun bexabarmiz".

1905-yil Oktabr Manifestidan so'ng jadidchilik o'zining rivoj-lanish bosqichiga o'tdi [Abdirashidov 2014, 49]. O'lkada milliy mat-buot nashrlari chop etilishi yo'lga qo'yildi. Jadidlar aynan matbuot va adabiyot orqali o'z g'oyalarini targ'ib etish uchun yo'l topdi, oz bo'lsa ham xalq ongida o'zgarish yasashga erisha oldi. Musulmonlar-ni jamiyat ishlarida faol bo'lishga, zamonaviy bilimlarni o'rganishga da'vat eta oldi. Matbuotning yuzaga kelishi, jonlanishi adabiy jarayon uchun asosiy minbar vazifasini o'tadi. Jadidlar o'z dasturlarini mat-buot sahifalari yordamida keng yoya oldi. Usmonli turk, tatar, Misr matbuotining tajribalari o'zlashtirildi.

Milliy matbuotdan milliy adabiyotga yo'l

XIX asrning o'rtalariga kelib, tarqoq adabiy jarayon birlashdi. Va milliy uyg'onish davri adabiyotiga qadam qo'yildi. XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi 50-60 yilni qamrab oluvchi [Qosimov 2011, 171] milliy uyg'onish mintaqamizda jadidchilik shaklida namoyon bo'ldi va u 20-yillarning o'rtalarigacha davom etdi [Qosimov 2004, 2]

O'zbek adabiyotining biror bosqichi milliy uyg'onish davri adabiyotichalik siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga yaqin kelmagan, birlashib ketmagan. Adabiyotning ijtimoiy sharoitdan kelib chiqib ish tutishi, o'z yo'nalishini belgilashi ayni shu davr adabiyoti misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Jadid adabiyotining dastlabki namunalari "o'tish davri" (1905–1917 yy.) mahsuli hisoblanib, yangi janr, yangi uslubga ishlov berish davomida sayqallandi. XX asrning 20-yillariga kelibgina u "har jihatdan to'laqonli adabiyotga aylandi" [Qosimov 2002, 128]. Bu bosqichda (1905–1917-yy.) "adabiyotimizning dunyoviy mazmun tomon burilishi, ma'rifatparvarlik ruhining yetakchiligi, jadidchilik qarashlarining mo'lligi, g'oyaviy pafosning kuchliligi, badiiylikning zaifligi va an'anaviy she'riyat turlari ila bir qatorda drama, roman singari janrlarning embrional shakllari maydonga kelishi kabi belgilar bilan xarakterlanadi" [Sodiqov 2011, 23]. Adabiyotdagi yangilanishlar, g'oyaviy kurashlar, bahs-munozaralar bu davr adabiyotiga xos bosh xususiyat bo'ldi. O'zbek adabiyoti realistik xarakterga ega bo'la boshladi. Bu bosqichda jadid adabiyotining Qodiriy, Cho'lpon, Avloniy, Fitrat kabi buyuk qalam sohiblarini yetishtirgan adabiyot janrlar qorishqligi, tajribalar silsilasini boshidan kechirayotgan edi. Shu bois bu davrda yaratilgan asarlarga odatiy qoliplardan biroz chetga chiqqan holda baho berish adolatdan bo'ladi. Hozirgi adabiy jarayondagi estetik talab bilan XX asrdagi talabni solishtirib bo'lmaydi. Badiiy jarayonni bugungi kun nazariyasi va tanqidi nuqtayi nazaridan tekshirib bo'lmaydi. Aslida, biz badiiy yaydoq fikrlar, to'laqonli bo'lmagan adabiyot deb aytadigan baholalarimiz nisbiy, biryoqlama yondashishdan boshqa narsa emas.

Bu davrga kelib adabiyotning matbuot bilan uzviylik kuchaydi. Shu bois bu davr adabiyotida publitsistik va badiiy janrlar o'rtasida chegara yo'qoldi, bir-biriga o'tib turardi. Buni felyeton misolida ko'rish mumkin. Matbuot sahifalarida "Felyeton", "Kichik felyeton" kabi alohida ruknlar ko'rina boshladi. Adabiyotning nasr turi asosiy tajribalar, yangilanishlar, badiiy kashfiyotlar va izlanishlar maydoni bo'ldi. Jadidlar teatr san'ati an'analarini turk, tatar qardoshlaridan o'zlashtirdi. Ulardan farqli o'laroq milliy koloritni aks ettirgan o'zbek

tilida yozilgan maishiy hayotimiz aks ettirilgan pyesalar yozishdi. Jadid adabiyotiga kelib qahramonlarni boy kambag'alga ajratish emas, balki yurt taqdiriga befarq bo'lmagan yoki loqayd inson xarakterlariga tamoyillariga ko'ra ajratila boshlandi. Adabiyotning qiyamati ijtimoiy hayot bilan ijtimoiy faollik bilan belgilanadigan bo'ldi. Ijodkorlar senzura, bosim, ta'qiq sabab tanqidiy qarashlarini, milliy o'zlikka daxldor fikrlarini niqoblash, zamon va makonni ko'chirish vositasida ifodalash usuliga o'tdilar.

Jadid ijodkorlari yangi o'zbek adabiyotini yangi janrlar bilan boyitdilar. Jadid adabiyotining birinchi bosqichi 1905-1917-yillarda kechdi. Bu davrda o'zbek adabiyoti o'z yo'nalishini keskin o'zgartirdi, yangi qiyofa kasb etdi. Adabiyotda realizm unsurlari mustahkamlana bordi. O'zbek adabiyotining sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishi esa xalq ijtimoiy ongining o'zgarishi bilan chambarchas bog'liq bo'ldi [Saidov 2004, 32].

Matbuot va adabiy aloqalar

Matbuot turkistonlik ziyolilarni tashqi dunyoga chiqishlarida muhim vosita bo'ldi. Turk, tatar, ozarbayjon taraqqiyparvarlarining teatr, matbuot, maorif sohasidagi tajribalari qo'llanila boshladi. Ushbu ishlarni yoyishda Ismoil Obidiy, Abdurauf Muzaffarzoda, Ahmad Zaki Validiy, No'shiravon Yavushev, Shokir Muxtorov, Ibrohim Tohiriy, Ahmadjon Bektemirov, Husayn Makayev, Kabir Bakir, Fotih Bakir kabi qardosh ziyolilar Turkistonda turib faoliyat olib bordilar. Vaqtli matbuotimizda uchrovchi "Sayyoh", "Bir musofir", "Samarqandiy", "Buxoroli", "A.F", "Qardosh", "Muxbir" [Qosimov 2002, 52] kabi imzolar aynan Turkistonda faoliyat olib borgan tatar, turk muxbirlarga tegishli edi. Shu bilan bir qatorda, turkistonlik jadidlar M.Behbudiy, M.Shermuhammedov, Cho'lpon, Mo'minjon Muhammadjonov, Bahrombek Davlatshoyevlar "Tarjimon", "Sho'ro", "Vaqt", "Ulfat" kabi tashqi davriy nashrlarda faol ishtirok etishdi. Turkistonda ham "Tarjimon", "Mulla Nasriddin", "Iqbol", "Turk yurdu", "Sho'ro" mushtariylari ko'paydi. Jumladan, Orenburgda nashr etilgan "Sho'ro" (1908-1918) jurnalining sahifalari ham turkistonlik va tatar ziyolilarining fikr almashish va aloqa maydoni bo'lgan edi. Behbudiy, Cho'lpon, So'fizoda, Hoji Muin, Mirmuhsin Shermuhammedov, Sadridin Ayniy, Lutfullo Olimiy, Ajziy, Mo'minjon Muhammadjonov, Rojiy Xolmuhammad Oxundiy kabi taraqqiyparvarlarning ushbu jurnaldagi muntazam ishtiroki [Qosimov 2002, 56] ham bunga dalil bo'la oladi. Umuman olganda, ushbu gazeta-jurnallar Turkiston matbuoti bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishdi, yo'l-yo'riq ko'rsatishdi. Tashqi

davriy nashrlarda Turkiston mavzusi alohida o'rin egallay boshladi. G'arb adabiyotidan tarjimalar amalga oshirila boshladi. Jadidlarning mana shunday adabiy-madaniy aloqalari, asosan, ikki xil yo'lda rivoj topgan. Birinchisi, yuqorida aytib o'tganimizdek, ko'plab madaniyat, san'at, ta'lim xodimlarining, ijodkorlarning bir-birlari bilan bevosita aloqada bo'lganlari, sayohatlar davomidagi tanishuvlar, Turkiston o'lkasida muqim yoki uzoq vaqt yashab, hamkorlikda ijod qilish yo'li bo'lgan. Ikkinchisi, matbuot sahifalari orqali tanishuv, tanituv, ta'sirlanuv yo'lidir. Va nisbatan bu ikkinchi yo'l ko'proq ta'sirga ega bo'lgan. Bizdagi muvaqqat nashrlarda nafaqat turkistonliklar, balki turk, tatar, afg'on, eron shoirlarining ham o'z ijodiy namunalari bilan faol qatnashganliklarining guvohi bo'lish mumkin. Masalan, Rijoizoda Mahmud Akrom, Dog'istoniy, Kafkoziy, Javdat, Shayx Olim Eroniy, Mahmud Tarziy, Zuhuriddin Fathiddinzoda kabi shoirlar ijodini misol qilib keltirish mumkin. Shu bilan birga, ingliz, nemis, xitoy adabiyotidan qilingan tarjima asarlar alohida o'rin egallaydi. Gyotening "Faust" (parcha), D.Defoning "Robinzon Kruzo" asari, xitoy nasridan namunalarni misol qilib keltirish mumkin.

Abdurauf Muzaffarzoda, Ahmad Zaki Validiy, No'shiravon Yavushev, Shokir Muxtorov, Ibrohim Tohiriy, Ahmadjon Bektemirov kabi bir qator ziyolilarning tanqidiy maqolalari, tahlillari turkistonlik jadidlarning, ijtimoiy qatlamning fikriy uyg'onishida muhim o'rin tutgan. Turkiston matbuoti nashrlarida uchrovchi iqtiboslar o'zbek, turk, tatar, ozarbayjon, eron, arab uyg'onish harakati vakillarining bir-birlari bilan matbuot orqali har doim munosabatda bo'lganiga yana bir dalili bo'la oladi. Aslida, rus va xorij matbuotidan iqtiboslar berib borish mahalliy matbuot uchun senzura o'rnatgan talablardan biri bo'lgan. Ko'pchilik muharrirlarning matbuot ochishga ruxsat olish uchun tayyorlagan dasturlarida mana shu band ham qayd etib o'tilgan [Do'stqorayev 2009, 190]. Sababi, ularning o'zi ham muntazam ravishda tashqi davriy nashrlar bilan tanishib borganidek, o'z gazeta va jurnallari uchun ulardagi eng ahamiyatli xabarlardan iqtiboslar olgan. "Tarjimon", "Vaqt", "Yulduz", "Saboh", "Quyosh", "Chehranamo", "Al-Hilol", "Sho'ro", "Mulla Nasriddin", "Islom majmuasi", "Sirojul-axbor" kabi vaqtli matbuot nashrlaridan keltirilgan iqtiboslarni deyarli barcha nashrlarda kuzatish mumkin.

Vaqtli matbuotda adabiy til masalasi

Adabiyotning maqsadi va unga qo'yilayotgan talablarning keskinlashuvi adabiy tilga bo'lgan yondashuvni ham o'zgartirib yubordi. Bunda, birinchi navbatda, ko'p asrlardan beri shakllanib

kelgan jozibali tilni xalq hayotiga yaqinlashtirish ko'zda tutilardi. Bu g'oya targ'ibotida matbuot asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. Til birligiga bag'ishlangan maqolalarda milliy tilni sofligicha saqlash, barchaga tushunarli tilda ijod qilish, yot so'zlarni olib tashlash kabi masalalar aks etgan. Bu kabi jarayonlar birgina Turkiston miqyosida emas, balki butun turkiy xalqlar hayotida yuz berayotgandi. Maqsadi va o'ylari mushtarak bo'lgan ma'rifatparvarlarning bir-biriga ta'siri kuchli bo'lgan. Jadidlar o'z g'oyalarini kengroq yoyish maqsadida til birligi yoki umumadabiy tilni shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor berishgan. Gasprinskiyga ko'ra, til birligi – bu barcha turkiy xalqlar uchun tushunilishi oson bo'lgan “o'rta til”ni tanlash edi. Ko'p tarkibli turkiylar uchun yagona adabiy tilni joriy qilish juda qiyin masala edi. Shu bois ko'pchilik buni amalga oshmaydigan g'oya sifatida qabul qilgan. Umumadabiy tilni shakllantirish g'oyasi milliy til sofligi uchun kurashga aylanib ketdi. Aytish kerakki, Gasprinskiyning “tavhidi lison” g'oyasi ta'sirida turkistonlik ko'plab jadidlar milliy til muhofazasi, til sofligi masalasiga urg'u bera boshlashdi. Ustozi muazzamning bu taklifini qo'llab-quvvatlash maqsadida “o'rta til”, “o'rta sheva” xususida matbuotda chiqishlar qildi. Samarqandda o'zi nashr ettirgan “Samarqand” gazetasi hamda “Oyina” jurnali tiliga “turkiy va forsiy o'rta shevada” deb tavsif bergan. Ziyo Said bu holatni Gasprinskiy yo'li deb baholaydi [Ziyo Said 1974, 44]. Biroq “Tarjimon”da ham, “Oyina”da ham muharrirlarning milliy til xususiyatlari ta'siri kuchliligi sezilib turadi. Albatta, jadidlar til birligi g'oyasini boshlang'ich maktablarda tatbiq qilishga o'quvchilarning o'z ona tilida savod chiqarishlari lozimligiga jiddiy e'tibor berishgan. Behbudiy esa umumadabiy til yoki milliy til sofligi targ'ibotini millat onalarini o'qutishdan, avvalo, xotin-qizlarga ona tilini tanitishdan boshlash lozimligini ta'kidlaydi.

Abdurauf Muzaffarzoda ham til, imlo masalalariga bag'ishlangan maqolalari bilan matbuotda faol bo'lgan [Sadoyi Turkiston 63]. Xususan, adabiy tilning bugungidek nochor holga kelib qolish sabablarini izohlash maqsadida uning XX asr boshlariga qadar bo'lgan o'tmishiga nazar soladi: “Bu kungacha millat bolalari haqiqiy usullar ila ta'lim va tarbiya ko'rmadular. Shuning uchun ularg'a to'g'ri bo'lg'on o'qu va yozuv qoidalari o'rgatilmadi. Imlo, insho va ona tili darslari o'qutilmadi. Bas, millat savodsiz, imlosiz, tilsiz bo'lub asrlarcha shul holda qoldi. ...maktablar yana ona tili asosiga qurilmagan, madrasalar forsiy, arabiy kitoblar ila to'lg'on edi. ...ona tili ilmiy ishlarda iste'mol qilinmadi. ...ona tilimiz ham yildan yil zaiflandi. o'qug'onlarimiz til buzulmog'iga xizmat etdilar”. Muallifning fikriga

ko'ra, arabiy va forsiy so'zlarni ko'p qo'llashni fazilat sanash hollari hozir ham davom etayotganligi salbiy holdir. Albatta, Muzaffarzodaning sof turkiy tilni saqlab qolish tarafdori bo'lganligini payqash qiyin emas. U milliy tilimizning oddiy xalq ichida saqlanib qolgan sof turkiycha ulushiga umid bog'laydi. Va hozirda faqatgina tilning o'sha parchasidan foydalanilayotganligini yozadi. Muallif nazarda tutayotgan o'sha "parcha" esa sheva so'zlari bo'lib, u adabiy til sifatida shakllanmagan qismidir. Aynan shu kuchga tayangan holda, XX asr boshlariga kelib, millat bolalari o'z ona tillarida ijod qilishga jiddiy bel bog'laganliklarini va shu bilan birga, hali-hanuz tilni buzib ishlatuvchilar borligini ta'kidlab o'tadi. Ulamo qatlamining o'z nutqida arabiy, forsiy so'zlarni qo'llamasligi jaholat sanalurlik holga kelib qolganligini istehzo qilib, ayrim so'zlarni misol keltiradi. Misol uchun kiyim o'rnida libos, tilni lison, otni fars, qo'noqni mehmon tarzida ishlatishlarini oqlamaydi. Muallif til masalasida juda ehtiyot bo'lib ish ko'rishga chaqiradi.

Muzaffarzoda til sofliги masalasida juda keskin pozitsiyada turgan, deyish mumkin. Boshqa tillardan so'z qabul qilmaslik, turkiychada muqobili topiladigan yot so'zlarni quvib chiqarish lozimligini ta'kidlaydi. O'z o'rnida, tilimizda o'rnashib qolgan hamma so'zlarni ham chiqarib yuborishning iloji yo'qligini to'g'ri ang'laydi va bunday so'zlarga quyidagilarni misol qilib keltiradi: vaqt, ibrat, ayb, duo, odat, adab, rohat, qanoat. Sof turkiycha ekvivalenti bilan almashtirish mumkin bo'lgan so'zlarga esa quyidagilarni misol qiladi: muharrir=yozuvchi, matbaa=bosmaxona, madh=maqdamak, hamroh=yo'ldosh, jamiyat=yig'in, haqiqat=to'g'rilik, majlis=o'turish, muhoraba=urush. Ilmiy tilni ham turkiylashtirish masalasini qo'yadi va ilmiy istilohlarni ham shunday muqobillari bilan almashtirish taklifini beradi, misollar keltiradi: ayni o'zi=xuddi o'zi, xoh bo'lsun xoh bo'lmasun=kerak bo'lsun, kerak bo'lmasun, manfaati shaxsiya=o'z foydasi. Albatta, Muzaffarzodaning o'zi ham maqolasida ko'plab arabiy, forsiy so'z va iboralardan foydalangan va buning izohi sifatida o'zining ham tilsiz tatar bolasi ekanligini keltiradi. Turkiy tilning hozirgi ahvolidan inson o'z ko'ngil kechmishlarini, o'ylagan fikrini yetkazib berishda boshqa tillarga murojaat qilishga majbur bo'lishlarini tan oladi.

Muzaffarzodaning ushbu maqolada bildirilgan fikrlariga Behbudiyning "Til masalasi" maqolasida javob bo'luvchi fikrlar aks etgan. Behbudiy masalaga ancha kengroq yondashadi. Uning fikricha, forsiy va arabiy so'zlarni tilimizdan chiqarib yuborishni "yengil orzu, ammo ijrosi mumkin emas orzulardan" bo'lib, ko'plab tarixiy joylar

va shaxs nomlarini turkchasi bilan o'zgartirib unga lug'atlar tuzib chiqish mushkullik tug'dirishini aytadi. Behbudiy bu ishning qonuni tabiatg'a muxolifligini, begona tildan so'z olmoqdan qutulgan til yo'qligini o'z fikrlari bilan isbotlab beradi. Behbudiy til sofligi masalasidagi fikrlarida ham o'zining diniy qarashlari negizida yondashadi. Arabiy, forsiy so'zlardan foydalanish dindoshlari bilan yaqin aloqada bo'lish, bir-birlarini yaxshiroq tushunish uchun yo'l ochishiga ishoralar beradi: "Holbuki, "qo'noq" deganda bir turk fahmlaydur. "Mehmon" deganda turk fahmlagani ustida, yana bir forsiy musulmon qarindoshimiz-da anglaydir" [Oyina 12]. Behbudiy tilning tarixidan ko'ra buguniga ko'proq e'tibor qaratishni lozim topadi. Ushbu maqolasi zahirida birtillilikni yoqlovchilarga qarshi kayfiyatda turganligi seziladi. Til sofligiga erishishning imkonsiz ish ekanligini ta'kidlab o'tadi: "Xulosa fikrimiz shuki yalg'uz turkcha so'ylamak va yozmoq abadan mumkin yo'q. Baqadri imkon arabiy va forsiyni kam yozaylik". "Sadoyi Turkiston"da e'lon qilingan "Tilimizga qoidaning luzumi bormi?" [Sadoyi Turkiston, 64] sarlavhali maqolasida o'sha davr matbuoti tili xususida aniq ma'lumotlar olish mumkin bo'lgan o'rinlar bor. Maqola muallifi Muharram Namangoniy "Oyina", "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona", "Al-isloh" tili haqida to'xtalib o'tadi. Unga ko'ra, "Sadoyi Turkiston" butun Turkistondagi xalq tushunarlik bir qoidada yozishini, "Oyina"ni tili esa "biroz boshqarog'" deb mavhumroq fikr keltiradi. Albatta, "Oyina"ning o'zida keltirilgan "turkiy va forsiy o'rta shevada" iboralaridan yuqoridagi "biroz boshqaroq"ni tushunib olishimiz mumkin. Muharram "Sadoyi Farg'ona"ning tili, uslubi haqida to'xtalishni ham istamaydi. Ya'ni uning uslubini uslub hisoblamaydi. "Al-isloh"ning esa "yetmish ikki turli lisonidan murakkab kalimalardan tarkib etil"ganini ta'kidlaydi. Ushbu maqolada biz adabiy tilga doir boshqa qimmatli fikrlarni ham uchratamiz. Muallif o'sha davrda mavjud katta bir muammoga e'tiborni qaratadi. Maktab darsliklarini turli mualliflar turli shevalarda yozayotgani bolalarni adabiy tildan uzoqlashtirib yuborayotgan omil sifatida ko'rsatilgan: "Milliy maktablarning birida samarqandlik muharrir tomonidan yozilgan darslik, boshqasida toshkentlik muharrir yozgan darslik o'qitilar". Namangoniy bu darslik va kitoblarning umumiy bir adabiy tilda yozilishi lozimligini ta'kidlaydi. Va adabiyot, matbuotning rivojini ham umumadabiy til bilan bog'laydi. Maqola davomida muallif barcha muallif-u muharrirlarni o'rta shevada yozishga chaqiradi. Lekin aynan o'rta sheva deganda qaysi tillar yoki shevalar oralig'ini nazarda tutilayotganligiga ishora topolmaymiz. Maqolaning tilida usmonlichaga yaqinlik sezilishi, "Oyina"ning tili-

ni “boshqaroq” deb ta’riflashi va “To’y” tilini xushlamayotganligidan muallifning turk-tatar shevasiga yaqin o’rta tilni nazarda tutganligini taxmin qilish mumkin. Aslini olganda ham o’tgan asr boshlarida nashr qilingan gazetalarni kuzatadigan bo’lsak, ularning har birida o’ziga xos til uslubi borligini ko’ramiz.

“Taraqqiy” gazetasining tilini o’z davri uchun adabiy til me’yorlari doirasida ishlangan til hisoblangan, deb qabul qilish mumkin. Gazetaning hech bir o’rnida uning tiliga ishora qilinmagan. Shunday bo’lsa ham o’rta til nazariyasini turlicha qabul qilish ushbu nashrni ham chetlab o’tmagan edi. Aynan shu gazetadan olingan ikki xil parchani olib ko’radigan bo’lsak, fikrimiz yanada ochiqlanadi: “Eshagiga yarasha tushovi” degan o’zbek maqolicha, muallimlar ham aksarlari qonuni ta’lim-tarbiyadin butun-butun bexabar kishilar o’lub, balki o’quv va yozuvni ham lozimincha bilmasliklari vajhidan bechora ma’sumalarni iste’dodi zotiyasig’a nazzora ikki yil zarifida jami’ lavozumoti diniyani bildirmoq mumkin o’lg’on holda, to’rt-besh yilg’acha hijja usuli birla dunyo va oxiratga foydasi bo’lmag’on Fuzuliy, Navoiy, Xo’ja Hofiz va Bedil kabi mushkul manzuma kitoblarg’a umri azizini barbod etarlar [Taraqqiy, 1]. Mazkur parchaning til qurilishi Turkiston turkchasi (chig’atoy lahjasining buzilgan ko’rinishi)¹ga mos keladi. Ifoda biroz og’ir, arabiy izofa hamda arabiy, forsiy so’zlardan keng foydalanilgan. Shu gazetadan olingan boshqa bir parchada esa yuqoridagi ifodaning soddalashgan variantini ko’ramiz: “Bir zamon bo’lmishki, uch-do’rt milyun miqdorida bo’lg’on arablar rum va fors mamlakatlarini (negizlarindan)tagidan qo’bortub uchurmishlar, qorong’i dunyoni ilm nuri va ma’rifat chirog’i ila ravshan va munavvar qilmishlar. Aholini zulm og’ularindan qutqorub adolat mevalari ila og’izlandurmishlar” [Taraqqiy 14]. Bundan ko’rish mumkinki, gazeta tahririyati mualliflarning maqola tili, uslubiga u qadar daxl qilmagan holda nashr etishgan.

“Taraqqiy”dan farqli o’laroq “Tujjor” gazetasi tijoriy ishlarda barcha musulmonlarni birlashtirish maqsadidan kelib chiqib, gazeta tiliga “musulmoniya zamonida” deb tavsif beradi. Gazetadan o’rin olgan maqolalarning umumiy mazmunidan, g’oyaviy yo’nalishidan kelib chiqsak, idora aynan musulmoniya zaboni deganda Rusiya musulmonlarining barchasi uchun tushunarli bo’lgan tilda yozishga intilganini, shuni nazarda tutganligini ko’ramiz: “Olamning benihoya kattaligini yozub, ro’yi zaminda (ya’ni Rossiya qo’l ostinda) har xil millat va aqvomlar borlig’ini yozub, kurrayi arzda Buxoro ham

